


NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 170 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 645 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 20,3 % ni) Navoiy shahriga, 477 tasi (15,0 %) Karmana tumaniga, 351 tasi (11,1 %) Xatirchi tumaniga, 332 tasi (10,5 %) Qiziltepa tumaniga va 287 tasi (9,1 %) Zarafshon shahriga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan (1-oktabr holatiga ko'ra)






Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 72 996,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (393 588,8 ming so'm), Karmana tumani (48 857,6 ming so'm), Konimex tumani (13 750,1 ming so'm), G'ozg'on shahrida (9 218,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

yanvar-sentabr
ming. so'mda





Navoiy viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

68,7 mln. so'm




yanvar-sentabr
o'sish sur'ati, % da





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 59 097,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,9 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Navoiy shahri (85,1 %), Karmana tumani (9,2 %), Qiziltepa tumani (1,8 %), Navbahor tumani (0,9 %) hamda Xatirchi (0,8 %) tumani hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Konimex tumanida (108,5 %), Zarafshon shahrida (108,5 %) hamda Tomdi (108,2 %) tumanlarida kuzatildi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 029,3 mlrd soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,4 % ga toʻgʻri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59 097,0 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,9 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,8 % (10,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,1 % (82,5 %) va quyi texnologiyalisi – 7,0 % (6,5 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2023- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5 776,5 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,0 % ga o'sgan), 1 950,0 tonna xlor (153,1 %), 1 840,4 ming dona mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (132,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	50,2	65,1	11,3
Fosfinatlar, fosfonatlar fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	475,4	357,9	- 117,5
Xlor, tonna.	1 274,0	1 950,0	676,0
Yogurt, tonna.	14,3	17,8	3,5
Metanal (formaldegid), tonna.	1 455,4	1 341,0	- 114,4
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, t.	4 658,3	5 776,5	1 118,2
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	36,4	36,9	0,5
Vodorod xlorid (xlorid kislota), ming t.	32,1	38,2	6,1
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	46,4	42,3	- 4,1
Portlandsement, ming t.	2 324,1	2 219,3	- 104,8
Superfosfatlar, ming t P2O5.	1,7	1,4	- 0,3


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Uglerod dioksidi ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat anhidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonish mahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.

Viloyatimizda 2023- yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 7,0 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarildi. Uglerod dioksidi ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi.




Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olinganida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 38,2 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etgan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Azot ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 78,7 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 % ni tashkil etdi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo‘llanadi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 5 776,5 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 24,0 % ga ko‘paygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 75,4 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 44 544,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 415,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 773,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,4 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 369,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 241,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 922,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 822,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,6 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 90,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 99,0 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	8 498,9	7 729,0	- 769,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 375,3	3 343,1	- 32,2

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,0 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 81,1 % ni tashkil etdi hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 6,7 % ga oshdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	48 816,0	39 577,0	- 9 239,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	103 696,4	110 634,9	6 938,5

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2 901,6 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 4,0 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1 547,0 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,2 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Karmana tumani (120,7 %), Xatirchi tumani (109,5 %) hamda Uchquduq (106,3 %) tumani korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar







Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 53,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 46,7 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 40,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 102,5 % ga to'g'ri keldi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.


Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 18,6 %, shuningdek, Navoiy shahri 18,0 %, Xatirchi tumani 15,6 %, Qiziltepa tumani 14,7 % ekanligi kuzatildi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Karmana tumani - 3 946,0 ming so'mni, Navoiy shahrida - 3 305,2 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 2 667,5 ming so'mni, Navbahor tumanida - 2 636,5 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 2 376,0 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
ming. so'm





Viloyatda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi

2,7 mln. so'm




yanvar-sentabr
o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Xatirchi tumaniga to'g'ri kelib, 18,2 %, shuningdek, Navbahor tumani 16,3 % ni, Nurota tumani 13,3 % ni, Karmana tumani 12,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 23,9 % ni, Navoiy shahriga 23,0 % va Qiziltepa tumaniga 19,4 % ekanligi kuzatildi.

yanvar-sentabr mlrd.so'mda





Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

53,3 %



yanvar-sentabr o'sish sur'ati, % da



mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da

TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQUARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI

2023- yil yanvar-sentabr

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 335 ta loyiha bo'yicha 3 854,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 27,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 887 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

